



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th July, 2025

SUR RANGLI AVLODLAR GUL KO'RSATKICHLARINING RANG TEKISLIGI BILAN BOG'LIQLIGI

H. I. Nomozov
tayanch doktorant

E. S. Shaptakov
ilmiy rahbar q.x.f.d., professor
Qorako'Ichilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti direktori

Annotatsiya:

Maqolada "Qarnab ota" qorako'Ichilik naslchilik MChJ da urchitiluvchi Buxoro sur rangli qorako'l qo'zilarida gullarining uzunligi va kengligining ularning rang tekisligiga bog'liqligini aniqlash natijalari yoritilgan va ushbu natijalar orqali xulosalar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: sur rangli qorako'l qo'zilar, seleksiya, juftlash, rang tekisligi. Gullar uzunligi, gullar kengligi.

Аннотация:

В статье приводятся результаты исследований по изучению зависимости длины и ширины завитка от уравненности окраски у каракульских ягнят бухарского сура разводимых в племенном каракулеводческом ООО "Карнаб ота".

Ключевые слова: каракульские ягнята окраски сур, селекция, подбор, уравненность окраски, длина завитка, ширина завитка.

Abstract:

The article presents the results of determining the dependence of the length and width of the flowers on their color flatness in Bukhara gray-colored karakul lambs bred at the "Qarnab Ota" Karakul Breeding LLC, and is enriched with conclusions based on these results.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th July, 2025

Keywords: karakul lambs with a gray color, selection, mating, color uniformity. Flower length, flower width.

Kirish

Qorako'lichilikda qo'zilarining teri yuzasidagi gullarining bularga uzunligi, kengligi (eni) va balandligi muhim ko'rsatkichlar hisoblanadi. Gul ko'rsatkichlari ko'pincha ularning irsiy xususiyatlariga bog'liq.

Bundan tashqari gul o'lchovlari qo'ylarning yashash sharoitiga ham bog'liq. Shu bilan birga gul o'lchamlari homilani ona qornidagi o'sish muddatining ozko'pligiga, qo'zilarining tug'ilishdagi fasliga, ularning vazniga, konstitutsiyasiga va boshqa ko'rsatkichlariga ham bo'liq.

Demak, gul o'lchovlari talab darajasidagi qo'zilarni ko'paytirish uchun naslchilik ishlarida tanlash va juftlash bilan bir qatorda, ularni yashash sharoitini o'zgartirib boqish yo'li bilan muhim natijalarga erishish mumkin.

Qorako'l terilar orasida sur terilarga bo'lgan talab boshqa rangdagilarga nisbatan yuqori. Eng asosiysi ushbu guruh qo'ylarni teri yuzasidagi rangning tarqalishini yaxshilash asosiy masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Shunga monand ravishda bunday qo'ylar guruhini ko'paytirish va ular sifatini yaxshilash haqida ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi sur rangli avlodlar gullarining uzunligi va kengligi (eni) hamda ushbu ko'rsatkichlarning rang tekisligi bilan bog'liqligi o'rganish hisoblanadi.

Tadqiqotni bajarish joyi va usullari. Tadqiqotlar Samarqand viloyati Paxtachi tumanidagi "Qarnab ota" qorako'lichilik naslchilik MChJ da urchitiluvchi buxoro sur rangli qo'chqor va sovluqlarni juftlash natijasida olingan sur rangli avlodlarda oshirildi.

Tadqiqot usullari: Avlodlarni baholashda S.Yu.Yusupov va boshqalarning "Qorako'lichilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo'zilarni baholash (bonitirovka



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th July, 2025

qilish) bo'yicha qo'llanma" (2015) hamda ma'lumotlarga matematik ishlov berishda variatsion statistika usullarida (N.A.Ploxinskiy, 1969) amalga oshirildi.

Avlodlarda gullarning uzunligi va kengligi (eni). Qalami gullar qancha uzun bo'lsa, qorako'l teri shuncha chiroyli va ko'rkam bo'ladi. Shuning natijasida teri sifatini tobora yaxshilab juftlash ishlarini tashkil etishda, qalami gullarning uzunligini e'tiborga olish katta natija beradi. Chunki gullarning uzunligi bilan teridagi ko'plab yaxshi xususiyatlar o'zaro chambarchas bog'liqdir. Qo'zilarni teri sifatiga baho berishda gullar kengligi ham muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Gul kengligi mayda, o'rta, katta kabi 3 xil ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi. Uning seleksion ahamiyati shundaki, o'rta kenglikdagi gullar ko'pchilik muhim belgilarning yuqori darajada namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

Avlodlarning rang tekisligi bilan gullar uzunligi va kengligi (eni) ni bog'liqligi.

Rangning tekisligi muhim ahamiyatga ega ko'rsatkich hisoblanadi. Gullarning va jun tolasining yuqori sifati, qimmatli rangbaranglikka ega bo'lgan qorako'l terilari ham agar rangi teri sathi bo'ylab tekis bo'lmasa kam qimmatli hisoblanadi. Rangning notekisligi teri sathida har xil ranglilik, olalik hissini uyg'otadi. Bu ko'rsatkichning pastligi gullarni hosil qiluvchi jun tolalarining teri sathining turli topografik qismlarida turli uzunlikka ega bo'lish, bu esa turli gullarning hosil bo'lish ehtimolini kuchaytiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holatda avlodlarning gul ko'rsatkichlarining rang tekisligi bilan bog'liqligini aniqlash yo'nalishida tadqiqot olib borildi.

Olingan natijalar 1-jadval va 1-diagrammada keltirildi.

1-jadval Avlodlarning rang tekisligining gul uzunligi va gul kengligi (eni) bilan bog'liqligi, % ($X \pm S_x$)

Rang tekisligi	n	Gul ko'rsatkichlari					
		Gul uzunligi			Gul kengligi (eni)		
		uzun	o'rta	kalta	mayda	o'rta	katta
a'lo	42	45,2±7,6	54,8±7,6	-	19,0±6,0	81,0±6,0	-
tekis	57	40,4±6,5	54,4±6,6	5,2±2,9	7,0±3,4	87,7±4,3	5,3±2,9
notekis	21	-	9,5±6,4	90,5±6,4	-	9,5±6,4	90,5±6,4

Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey


Website: econfseries.com

11th July, 2025

Jadval ma'lumotlariga asosan avlodlarining gul ko'rsatkichlarining rang tekisligi bilan bog'liqligi o'rganilganda, a'lo rang tekisligiga ega bo'lgan avlodlarda asosan uzun gullar 45,2 foiz, o'rta gullar 54,8 foizni tashkil etgan. Rang tekisligi a'lo qo'zilarida kalta gullilik kuzatilmadi. Rang tekisligi tekis qo'zilarida esa uzun gullar 40,4 foizni, o'rta uzunlikdagi gullar 54,4 foizni, kalta gullilar esa 5,2 foizni tashkil etdi. Rang tekisligi notekis qo'zilarida esa uzun gulli avlodlar uchramadi, faqat o'rta 9,5 va kalta gullilar 90,5 foiz bo'lishi aniqlandi.

Rang tekisligining gul kengligi (eni) bilan bog'liqligi o'rganilganda, a'lo rang tekisligiga ega qo'zilarida mayda gullar 19,0 foiz, va o'rta gullar esa 81,0 foizni tashkil etdi.

Rang tekisligi tekis holatda mayda gullar 7,0 foiz, o'rta gullar 87,7 foiz, katta gullar esa 5,3 foizni tashkil qilganligini ko'rish mumkin. Rangning notekis holatda tarqalishida esa mayda gullilik kuzatilmadi, o'rta gullar 9,5 foiz, katta gullar esa 90,5 foizga ega bo'lganligi qayd etildi.



1-diagramma. Avlodlarning rang tekisligini gul uzunligi va gul kengligi (eni) bilan bog'liqligi, %

Xulosa qilib aytganda, tadqiqotlar natijasi ma'lumotlarga asosan, avlodlar gul ko'rsatkichlari bilan rang tekisligi o'rtasida sezilarli darajada bog'liqlik mavjud. Shuni ham alohida aytish kerakki, rang tekisligi a'lo va tekis darajada bo'lgan avlodlarga ko'proq e'tibor qaratish lozim. Buning natijasida maqsadga muvofiq



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th July, 2025

bo'lgan avlodlar olish mumkin. Ushbu holatlarni seleksiya jarayonida e'tiborga olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yusupov S.Yu., Gaziyeu A. va boshqalar. "Qorako'Ichilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo'zilarni baholash (bonitirovka qilish) bo'yicha qo'llanma". Toshkent 2015, 22 bet.
2. Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников. Москва 1969.